

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-1

## MILLIY IRQIY ETNIK YOKI DINIY ADOVAT ZAMIRIDA SODIR ETILGAN JINOYATLARNING XUSUSIYATLARI MAMURJONOV SHAHBOZ MANSUR O'G'LII

Toshkent davlat yuridik universiteti “Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti” soha mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jinoyat subyektiv tomoning fakultativ belgisi bo'lgan motiv va uning tahlili, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat motivi bilan sodir etilgan jinoyatlarning tavsifi va jinoyat huquqiy tahlili bayon etilgan.

Shu bilan birgalikda milliy qonunchiligidan ushbu turdag'i motivlarning jinoyatlarning kvalifikatsiyasidagi ahamiyati borasida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** jinoyat motivi, millat, irq, din, adovat, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat zamirida jinoyatlarni sodir etilishi.

**Kirish:** Mamalakatimiz jinoyat qonunchiligi siyosatida tizimli tahlillarni amalga oshirish, shuningdek, unda bir qator xorijiy mamlakatlar tajribalaridan foydalanish, rivojlangan mamlakatlarning ushbu sohadagi qonunlaridan foydalanish milliy qonunchiligidan yanada takomillashtirishga imkon beradi. Shu asnoda xorijiy davlatlar qonunchiligidan normalarni tahlil qilishda Yevropa mamlakatkatlari qonunchiligini tahlil qilishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Negaki ushbu mamlakatlar qonunchiligi yetarli darajada demokratik va liberallashgan tusga ega hisoblanadi.

Bundan tashqari xorijiy davlatlar qonunchiligidan, olib borayotgan ilmiy tadqiqotimizga aloqador jinoyatning subyektiv tomoni bo'yicha milliy qonunchiligidan va xorijiy jinoyat qonunchiligini qiyosiy huquqiy tahlil qilish, bиринчи navbatda, qonunchilikdagi muammolarning asl yechimlarini izlashda qiziqarli. Bundan tashqari, bunday ishlar yuqorida keltirilganidek, Jinoyat kodeksimizni takomillashtirishga o'zining ijobjiy ta'sirini ko'rsatadi, shuningdek, global miqyosda jinoyatchilikka qarshi kurashda birgalikdagi sa'y-harakatlarni birlashtirishga yordam beradi. Ushbu masalani ko'rib chiqishda biz yaqin xorij deb ataladigan mamlakatlarga to'xtalib o'tmaymiz, chunki MDH va bizga qo'shni bo'lgan chegaradosh davlatlarining jinoyat qonunchigi mamlakatimiz jinoyat qonunchiligi bilan juda ko'p umumiyliliklarga ega. Ushbu holatni tasodifiy toifaga kiritib bo'lmaydi, chunki ushbu davlatladlar bir necha yillar davomida bir tarkibda bo'lgan. G'arbiy

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-1

Evropa va ba'zi Osiyo mamlakatlari jinoyat qonunchiligidagi ko'plab biz uchun yangi holatlar keltirilgan.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Milliy, irqiy, diniy adovat yoki adovat asosida jinoyat qonunchiligidagi nazarda tutilgan turli xil jinoyatlar sodir etilishi mumkin. Ushbu ishda yagona motivning mavjudligi turli yo'llar bilan sodir etilgan, ammo motivi o'xhash bo'lgan turli xil obyektlarga tajovuz qiluvchi sud-tibbiy ahamiyatga ega jinoyatlar gurhini aniqlash uchun asos bo'ldi. Demak, aynan motiv ko'rib chiqilayotgan jinoyatlar guruhi uchun tizimni tashkil etuvchi element bo'lib, batafsil va har tomonlama tahlil qilishni talab qiladi.

Subyektiv tomoni institutini tartibga solish, xorijiy davlatlar qonunchiligidagi jinoyat subyektlarining jinoyatni bajarishga imkoniyatlarini cheklash va ularning huquqlarini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi. Jinoyat subyektiv tomoni instituti davlatning huquqiy tizimini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va adolatni taminlashda muhim ro'l o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi" deb belgilangan. Ushbu normani amalga oshirish mexanizmi 2021-yil 5-iyulda yangi tahrirda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida keng yoritib berilgan. Mazkur qonunning 4-moddasiga ko'ra vijdon erkinligi – bu fuqarolarning xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik bo'yicha kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir.

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirish, uning suvereniteti va hududiy yaxlitligiga putur yetkazish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kamsitish, urushni, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qilish, fuqarolarning sog'lig'i va axloqiga tajovuz qilish, fuqarolar totuvligini buzish, vaziyatni beqarorlashtiruvchi tuhmatdan iborat uydirmalarni tarqatish, aholi o'rtasida sarosima uyg'otish hamda shaxs, jamiyat va davlatga qarshi qaratilgan boshqa harakatlar sodir etish maqsadida dindan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-1

Bugungi globallashgan zamonda tinchlik va insonlarning hayoti birinchi o'rinda tursada ko'plab davlatlar hamda fuqarolar o'rtasida diniy yoki irqiy adovat zamirida urushlar yuzaga kelmoqda.

Insonga umr Yaratgan haq tomonidan ne'mat sifatida berilgan, uni avaylash, mazmunli hamda savobli ishlarga bag'ishlab o'tkazish barcha muslimonlar uchun xos bo'lgan qarashdir.

Hozirgi davrda ko'payib borayotgan irqiy yoki diniy adovatlar zamiridagi urushlarning oldini va ularga barham berish uchun dunyoning gigant davlatlari hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1995-yil 16-noyabrda BMTning fan, ta'lif va madaniyat bo'yicha ixtisoslashgan tashkiloti YUNESKO tomonidan Bag'rikenglik prinsiplari deklaratsiyasining qabul qilinishi dunyodagi barcha millat va elatlarning bir-birlariga nisbatan do'stona hamda insonga xos bo'lgan fazilatlar bilan muomalada bo'lishlaridagi dasturil amal deyish mumin. Mazkur deklaratsiyada e'tiqod va vijdon erkinligiga ham e'tibor qaratilgan. Uning 1-moddasida, bag'rikenglik o'zimiz yashab turgan dunyo madaniyatining boy va xilma-xilligi, inson individualligining namoyon bo'lish shakllari va usullarini hurmat qilish, uni qabul qilish va to'g'ri tushunish hamda vijdon va e'tiqod erkinligi sifatida keltirilgan.

Mamlakatimizning bosh qomusi to'laligicha o'z fuqarolari bilan birgalikda barcha xalqlar va ularning diniy e'tiqotlariga hurmat ruhida qarashni o'zida namoyon qiladi. O'z fuqarolari uchun tenglikni ilgari suradi, Konstitutsiyamizning

18-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiyadolat prinsiplariga mos bo'lishi shartligi belgilangan.

Ko'rib turibmizki dunyoda bir davlat tomonidan ikkinchi davlatga yoki xalqqa urush qilib, uning tinchligiga rahna solib, o'zga davlatning huquqlarini poymol qilish holatlari uchramoqda. Bu holat albatta barcha davlatlarda og'ir jinoyat sifatida qaraladi.

Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat motivlarini mamlakatimiz JKning quyidagi moddalarida uchratish mumkin. Jumladan,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-1

- irqiy yoki milliy dushmanlik yoxud adovat zamirida (JKning 56-moddasi 1-qismi “l” bandi);
- milliy yoki irqiy adovat zamirida (JKning 97-moddasi 2-qismi “k” bandi);
- diniy taassublar zamirida (JKning 97-moddasi 2-qismi “m” bandi; JKning 104-moddasi 2-qismi “z” bandi; JKning 105-moddasi 2-qismi “z” bandi);
- millatlararo yoki irqiy adovat zamirida (JKning 104-moddasi 2-qismi “j” bandi va JKning 105-moddasi 2-qismi “j” bandi);
- milliy, etnik, irqiy yoki diniy mansubligiga qarab (JKning 153-moddasi dispozitsiyasi);
- milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atish (JKning 156-moddasi);
- millatlararo yoki irqiy adovat yoxud diniy taassublar zamirida (JKning 173-moddasi 2-qismi “a” bandi);
- milliy, irqiy, diniy yoki ijtimoiy kamsitish zamiriga asoslangan har qanday sabab bo‘yicha (JKning 235-moddasi 2-qismi “b” bandi).

Milliy, irqiy, diniy adovat yoki adovat asosida jinoyat qonunchiligidagi nazarda tutilgan turli xil jinoyatlar sodir etilishi mumkin. Ushbu jinoyatda yagona motivning mavjudligi turli yo‘llar bilan sodir etilgan, ammo motivi o‘xhash bo‘lgan turli xil obyektlarga tajovuz qiluvchi sud-tibbiy ahamiyatga ega jinoyatlar guruhini aniqlash uchun asos bo‘ladi.

Milliy, irqiy yoki diniy adovat zamirida sodir etiladan jinoyatlarning motivi o‘xhash bo‘lishi bilan jinoyatdagi obyekt turlicha bo‘ladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atiga ko‘ra adovat – o‘zaro nizolar, dushmanlik munosabatlari, kek, xusumat<sup>1</sup>, dushmanlik, nafrat, dushmanlik munosabati, shunday munosabatga xos his-tuyg‘u<sup>2</sup> degan ma’nolarni anglatadi. Ilmiy adabiyotlarda adovat tushunchasi ksenofobiya tushunchasi bilan ham qo‘llaniladi<sup>3</sup>. Jabrlanuvchining aynan shu, ya’ni aybdor yoqtirmaydigan millatga mansubligining o‘zi jinoyat sodir etishiga asosdir. Milliy adovat va nafratni – millatchilik yoki shovinistlarning ekstremistik guruhlari bir

<sup>1</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. S.F.Akobirov va b. Z.M.Ma’rufov tahriri ostida. – Moskva. Rus tili nashriyoti, 1981. 1 tom. – B.27.

<sup>2</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2006–2008. – B.41.

<sup>3</sup> Ksenofóbiya (grekcha ξένος “begona” + φόβος “qo‘rquv”) – kimgadir yoki begona, notanish, g‘ayrioddiy narsaga nisbatan murosasizlik; boshqa birovni yoqimsiz va xavfli deb bilish.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-1

xalqning boshqasidan ustunligi g‘oyalari ni e’tirof etadi<sup>4</sup>. Millatchilik – millat ayirish, bir millatni har tomonlama ulug‘lab, boshqalarining huquq, ehtiyoj va manfaatlarini nazar-pisand qilmaslik, ularni yerga urishdan iborat bo‘lgan nodemokratik mafkura<sup>5</sup>.

JKda jinoyat motivi sifatida irqiy, milliy adovat va diniy taassub jinoyat tarkibi subyektiv tomonining zaruriy yoki fakultativ belgisi sifatida kelib, mazkur motivlarning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

birinchidan, jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida;

ikkinchidan, aybni og‘irlashtiruvchi holat sifatida;

uchinchidan, sud tomonidan jazo tayinlash vaqtida jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida.

Millat (lotincha natio — xalq) umumiyl til, hudud, iqtisodiy hayot va ruhiy tarkib asosida vujudga kelgan, umumiyl madaniyatda namoyon bo‘lgan tarixan shakllangan barqaror odamlar jamoasidir. Milliy adovat yoki adovatning motivi boshqa millatga, shuningdek, uning vakillariga nisbatan adovat, jirkanishlikdan kelib chiqadi. Jinoyat ishi materiallarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, milliy adovat yoki adovat asosidagi jinoyatlarni sodir etishda radikal fikrdagi shaxslar uchun jabrlanuvchilarning jinsi, yoshi, shaxsiy yoki kasbiy fazilatlari mutlaqo ahamiyatsiz. Misol uchun, 2010-yil 16-iyun kuni Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh shahrida viloyat bolalar shifoxonasi xodimi tibbiyot muassasasi darvozasidan tashqariga chiqib, ushbu ko‘chada yashovchi o‘zbek millatiga mansub odamlarni tartibsizliklarni to‘xtatishga chaqirgan. Ertasi kuni shifokorning jasadi o‘q jarohati va jasadida kuyish jarohatlari bilan Qirg‘iziston hududidan oqib o‘tuvchi O‘zbekiston Respublikasi hududidagi daryordan topilgan<sup>6</sup>.

Milliy adovat yoki adovat asosida sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi shundan iboratki, ularning qurbonlari hatto yuzaga kelgan milliy nizoga hech qanday

<sup>4</sup> Голубовский В.Ю., Кунц Е.В. Межнациональные, религиозные отношения и будущее России: конфликты и потенциал гражданского общества / монография: – Проспект, 2017. – С. 64.

<sup>5</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2006–2008. – B.593.

<sup>6</sup> В июне 2010 года на территории г. Ош и в некоторых районах Ошской области Кыргызской Республики были массовые беспорядки, возникшие на почве межнациональной вражды между лицами кыргызской и узбекской национальностей. Уголовное дело № 41-10-224 от 17.06.2010 г. Архив Кара-Сууйского районного суда Кыргызской Республики. Назаркулова Ч. Н. Использование специальных знаний при расследовании преступлений, совершенных по мотиву национальной, расовой, религиозной ненависти или вражды. Ч. Н. Назаркулова – «Юстицинформ», 2019 – (Наука (Юстицинформ)).

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-1

aloqasi bo‘lmaidan va jinoyat sodir etilgan joyda bo‘lgan tinch aholi ham bo‘lishi mumkin.

Katta shaharlardagi tashqi belgilarga ko‘ra, odamning ma'lum bir millatga tegishli ekanligini aniqlash qiyin. Biroq, kichik joylarda milliy xilma-xillik kam va uning aholisi uchun ma'lum bir shaxsning millatini aniqlash qiyin emas. Buni Rossiya Federatsiyasi va Qирг‘изистон Республикаси hududida qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlari tahlili tasdiqlaydi. Moskva, Sankt-Peterburg, Volgograd, Vladimir, Krasnodar shaharlarida ko‘p marotaba qozg‘atilgan jinoiy ishlar bo‘yicha, so‘roq paytida tahlil qilingan sabablarga ko‘ra jinoyat sodir etgan shaxslar ko‘pincha ma'lum bir millat va uning vakillariga emas, balki «xalqlarga» nafrat haqida guvohlik berishgan. Bunday hollarda Rossiya huquq-tartibot idoralari xodimlari o‘zlarining ayblov xulosalarida va sud hukmlarida bir vaqtning o‘zida jinoyatning ikkita sababini ko‘rsatishgan: irqiy va milliy adovat zamirida jinoyat sodir etilganligi. Ushbu amaliyot ba’zi tadqiqotchilarining tanqidiga sabab bo‘lgan.

M.H.Rustambayev, ma'lum bir millat, irq vakillariga boshqa motiv sababli (shaxsiy munosabatdan kelib chiqqan qasos, rashk, tamagirlilik v. b.) tajovuz qilinsa, JKning 97-moddasi tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak<sup>7</sup> deb ta’kidlaydi. Fikrimizcha, millatlar o‘rtasida bo‘ladigan urish-janjal va boshqa jinoiy harakatlarda turli motivlar aralashib ketgan bo‘lishi mumkin. Shu sababli huquqni qo‘llovchi, avvalo, qilmishdagi ustuvor (dominant) motivni aniqlashi lozim hisoblanadi.

Masalan, A.A. Mozhegovaning ta’kidlashicha, “huquq-tartibot idoralari xodimlari ekstremistik ishlarni saralashda irqiy va milliy adovat va adovat motivlari ikki mustaqil motiv ekanligini unutmasliklari kerak, ular yakuniy sud qarorida isbot va asoslashni talab qiladi. Hukmda bir vaqtning o‘zida ikkita ko‘rib chiqilgan sababning mavjudligini ko‘rsatish, mohiyatan sud jinoyat sodir etishning o‘ziga xos motivi mavjudligini isbotlashga yetarlicha e’tibor bermaganligini anglatadi.

Irq (arabcha – qon tomirlari; ildiz; zot) – kishilarning ko‘z, soch va teri rangi, yuz-bosh tuzilishi va nasliy belgilari bir xil bo‘lgan, tarixan shakllangan har bir guruhi. Irqchilik – irqlar teng emas, shuning uchun go‘yo “oliy”, “sara” irqlarning “past” irqlar ustidan hukmron bo‘lishi taruratidir deb da’vo qiluvchi nazariya

<sup>7</sup> Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism / – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2021. – B.696.

**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-1**

va siyosatdir<sup>8</sup>. Irq – bu umumiy kelib chiqishi va umumiy irsiy jismoniy xususiyatlari (teri va soch rangi, bosh shakli va boshqalar) bilan birlashtirilgan insoniyatning tarixan shakllangan guruhidir.<sup>9</sup>

Iraqiy nafrat yoki adovat motivi boshqa irqga, shuningdek uning tashqi antropologik xususiyatlari bilan ajralib turadigan vakillariga nisbatan adovat, jirkanchlikka asoslangan. Shu bilan birga, ma'lum bir irqga nisbatan nafrat hissi ko'pincha bir irqning ustunligiga – “yuqori” va boshqasining - “pastki”ligiga chuqrishonchdan kelib chiqadi. Bunday noto'g'ri qarash irqchilik deb ataladi.

A.A. Mojegova ta'kidlaganidek, “huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ekstremistik ishlar yo'nalishi iraqiy va milliy adovat va nafrat motivlari ikki mustaqil motiv ekanligini unutmasligi kerak, ular yakuniy sud qarorida isbot va asoslashni talab qiladi. Hukmda bir vaqtning o'zida ikkita ko'rib chiqilgan motivning mavjudligini ko'rsatish, mohiyatan, sud tomonidan jinoyat sodir etishning o'ziga xos motivi mavjudligini isbotlashga yetarlicha e'tibor berilmaganligini anglatadi<sup>10</sup>.

Din, asosan, xudo yoki xudolar, g'ayritabiyy narsalarning mavjudligiga ishonishga asoslangan dunyoqarash va munosabat, shuningdek, unga mos keladigan xulq-atvor va o'ziga xos harakatlar sifatida belgilanadi<sup>11</sup>. Jahan dinlari an'anaviy ravishda buddizm, nasroniylik va islomni o'z ichiga oladi. Shuningdek, dunyoda ushbu e'tiqodga asoslangan ko'plab oqimlar, tarmoqlar va sektalar mavjud. L.G'Shnayderning ta'kidlashicha, “diniy nafrat yoki adovat motivi - bu ma'lum ehtiyojlar bilan belgilanadigan ichki motivlar bo'lib, jinoyatchining ma'lum bir dinga e'tiqod qilganligi sababli o'zining ustunligini va jabrlanuvchining pastligini ko'rsatish istagini bildiradi. Shu bilan birga unga nisbatan nafrat bilan munosabatda bo'lish, qadr-qimmatini kansitish holatlari orqali namoyon bo'ladi”<sup>12</sup>. Xuddi shunday nuqtai

<sup>8</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmий нашриёти. 2006–2008. –Б.226-227.

<sup>9</sup> Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка: около 100 000 слов, терминов и фразеологических выражений; под ред. Л.И. Скворцова. М.: Издательство АСТ: Мир и Образование, 2017. С. 164, 614.; Ефремова Т.Ф. Толковый словарь омонимов русского языка: 20 000 рядов омографов: 80 000 словарных статей: 100 000 семантических единиц. – М.: Мир энциклопедий Аванта+, 2007. – С. 125, 619.

<sup>10</sup> Можегова А.А Экстремистские преступления и преступления экстремистской направленности по уголовному праву Российской Федерации: дис. канд. юрид. наук. – М., 2015. – С. 44.

<sup>11</sup> Большой энциклопедический словарь / гл. ред. А.М. Прохоров. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Большая Российская энциклопедия; – СПб.: Норинт, 2001. – С. 1009.

<sup>12</sup> Шнайдер Л.Г. Преступления по мотиву национальной, расовой, религиозной ненависти или вражды либо кровной мести в уголовном праве Российской Федерации: дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2006. – С. 9.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-1

nazarni N.G. Raxmatullina diniy adovat yoki adovat motivini “muayyan ehtiyojlar bilan belgilanadigan ichki motivlar, jinoyatchining ma’lum bir dingga e’tiqod qilganligi s sababli jabrlanuvchining pastligini ko‘rsatish istagini ifodalashi va buning natijasida o‘zining nafrat bilan bog‘liq munosabati” deb tushunadi. Bu holatda quyidagi fikrlarni ilgari suramiz, yuqoridagi ta’riflarga quyidagi qo‘srimchalarni keltiramiz, chunki ular faqat dindorga nisbatan nafrat haqida gapiradi, diniy nafrat yoki adovat sabab bo‘lgan jinoyat qurboni dindor, ateist yoki shunday bo‘lgan shaxs bo‘lishi mumkin: jinoyatchining fikriga ko‘ra, “diniy aqidalardan og‘ishgan”. Aytish joizki, so‘nggi yillardagi voqealar bir din vakillari, ammo turli konfessiyalar vakillari o‘rtasida nizolar kuchayganini ko‘rsatmoqda. Diniy tafovutlar asosidagi dinlararo adovat ilgari ham mavjud bo‘lgan, ammo radikal oqimlar paydo bo‘lishi bilan ularning oqibati butun jamiyat uchun katta xavf tug‘dirmoqda.

Shuningdek, diniy adovat motivi boshqa dingga, konfessiyaga va ularning tarafdarlariga, ateistlarga yoki biron bir dingga e’tiqod qilmaydigan yoki “yetarlicha” e’tiqod qilmaydigan shaxslarga nisbatan dushmanlik bilan asoslanadi. Qolaversa, jinoyat sodir etgan shaxs o‘zi e’tiqod qilayotgan dinning haqiqatiga chuqur ishonch hosil qiladi.

F.Z.Feliyev irqiy, milliy, diniy adovat yoki nafrat yoxud diniy taassub motivi deganda shaxsga uning haqiqiy yoki taxmin qilinayotgan irqiy, milliy yoki diniy (konfessiyaviy) mansubligi munosabati bilan yoki uning din (e’tiqod)ni qabul qilishni istamasligi munosabati bilan unga nisbatan adovatni ifodalovchi motivlar tushuniladi deb ta’kidlaydi<sup>13</sup>. Ushbu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, muallif diniy aqidaparastlik motivini ham aniqlaydi. Milliy qonunchiligidizga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining bir qancha muddalarda diniy adovat atamasi alohida bandlarda, diniy taassublar zamirida jinoyat sodir etish atamasi boshqa alohida bandlarda ko‘rsatilgan. Agar bularning barchasining o‘zagini jabrlanuvchining muayyan bir belgiga egaligi yoki muayyan guruhga mansubligi sababli aybdorni jinoyat sodir etishga undagan nafrat yoki adovat tashkil etadi.

XULOSA;

<sup>13</sup> Велиев Ф.З. Мотив ненависти или вражды и его уголовно-правовое значение: дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2015. – С. 85.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-1

Milliy, irqiy etnik, yoki diniy adovat zamirida jinoyatlarniing sodir etilishi turli millat hamda din vakillari o'tasida turli kelishmovchilik va nizoli holatlarni keltirib chiqaradi. Buning oqibatida davlat ichida fuqarolar o'rtasida urush kelib chiqadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tahlil qilingan sabablarga ko'ra jinoyat sodir etgan shaxslar nafaqat jabrlanuvchining qadr-qimmatini kamsitish, balki boshqa maqsadlarni ham ko'zlaydilar: qo'rqtish, turli millatlar, irqlar, dinlar yoki mintaqalar vakillari o'rtasida nizolarni qo'zg'atish, ba'zan esa nafratlangan guruhni yo'q qilish kabi.

Tahlil qilinadigan barcha motivlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, aybdor shaxs jabrlanuvchi orqali uning millatiga, irqiga, diniga nisbatan o'ziga xos yoki boshqalarga nisbatan dushmanlik munosabatini namoyishkorona ifodalaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // 01.05.2023 – <https://lex.uz/docs/-6445145>;
2. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan O'RQ-2012-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // <https://lex.uz/docs/-111453>;
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 2006–2008. – B.593;
4. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism / – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2021. – B.696;
5. Велиев Ф.З. Мотив ненависти или вражды и его уголовно-правовое значение: дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2015.;
6. Шнайдер Л.Г. Преступления по мотиву национальной, расовой, религиозной ненависти или вражды либо кровной мести в уголовном праве Российской Федерации: дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2006;
7. Большой энциклопедический словарь / гл. ред. А.М. Прохоров. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Большая Российская энциклопедия; – СПб.: Норинт, 2001. – С. 1009;
8. Можегова А.А Экстремистские преступления и преступления экстремистской направленности по уголовному праву Российской Федерации: дис. канд. юрид. наук. – М., 2015.